

**TA'LIM OLUVCHILARNI KASBGA YO'NALTIRISHDA OILA,
MAHALLA VA MAKTAB HAMKORLIGI**

Shokirova Mubina Nabijon qizi

*O'zDJTU, Xalqaro jurnalistika fakulteti,
Siyosatshunoslik yo'nalishi 2-bosqich talabasi.*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ta'lism oluvchini kasb-hunarga yo'naltirishda oila, mahalla va ta'lism muassasalarining o'rni va ishtiroki, o'zaro hamkorlik asosida bolaning kasb-hunar tanlashda uchraydigan qiyinchiliklarini bartaraf etish tizimlari va inklyuziv ta'limning bolani kasbga yo'naltirishdagi ahamiyati haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, kasb-hunar, o'qituvchi, oila, maktab, mahalla, hamkorlik, inklyuziv ta'lism, fan, qobiliyat, ota-on.*

Mamlakatimizda mustaqillikka erishgan dastlabki kunlarimizdanoq ko'plab sohalarda malakali va yetuk kadrlarni tayyorlash, ularni fan, ta'lism, ishlab chiqarish va turli sohalarga yo'naltirish davlatimizning bosh maqsadlaridan deb belgilandi. Zero, jamiyatimizning ma'naviy yangilanishida, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishda jahon hamjamiatiga qo'shilishini ta'minlaydigan demokratik huquqiy davlat qurish kadrlar tayyorlashning milliy masalasi ustuvor mezon sifatida muhim rol o'yнaydi. Chunki xalqning boy intellektual merosi va umuminsoniy qadriyatlар asosida zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan-texnika va texnologiyaning yangi yutuqlari asosida mukammal tayyorgarlikdan o'tgan kadrlarni tayyorlashning yangi tizimini shakllantirish O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotining muhim shartlaridan biri bo'lib qoldi. Darhaqiqat, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan taklif etilgan va Respublikamizda izchil amalga oshirib borilayotgan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi bugungi kunda jahon miqyosida keng e'tirof etilmoqda va o'zining natijalarini bermoqda. Biroq, hozirgi raqamli tansformatsiya sharoitida ta'lism oluvchilarni kasbga yo'naltirishda bir qancha muammolarga duch kelmoqdamiz. Ayniqsa, ta'lism oluvchilarni kasbga yo'naltirishda oila, maktab va mahalla integratsiyalashuvi masalasi e'tibor berilishi kerak bo'lgan muhim jihatlardan hisoblanadi.

Ma'lumki bolaning eng dastlabki ta'lism-tarbiya, mehnat tarbiyasi, turmush madaniyati, va bolaning komil inson bo'lib shakillanishi haqidagi tushunchalar oilada shakillanadi. Xususan, yosh avlodni ongli va mustaqil ravishda kelgusi ta'lism yo'nalishini (akademik litsey yoki kasb-hunar kolleji) tanlashiga yoki shaxsning qobiliyati, moyilliklari va jamiyatning kadrlarga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqqan holda mehnat qilish sohasini tanlashga ko'maklashish oiladagi ota-onaning asosiy burchidir.

Yangi o'tqazilgan niholning to'g'ri yoxud egri o'sishi bog'bon mehnati va mahoratiga bog'liqdir. Egri o'sayotgan niholning qaddini rostlab qo'yilmasa, u noto'g'ri rivojlanadi [1,5-b.]. Darhaqiqat, bolaning jamiyatga nafi tegadigan, kelgusidagi kasbi orqali o'z yurtini taraqqiy yetkazadigan, to'g'ri va yetuk soha vakili bo'lib yetishishda unga "oila" deb atalmish bog'bonning parvarishi zarur.

Qars ikki qo'ldan chiqadi deganlaridek, bolada mehnat tarbiyasini shakillantirishda, kasb-hunarga yo'naltirishda nafaqat oilaning, balki maktab va mahallaning ham hamkorligi muhim hisoblanadi. Mamlakatimizda umum davlat ishi bo'lgan o'quvchi yoshlarni ijtimoiy ishlab chiqarishning turli sohalardagi mehnat faoliyatiga tayyorlash asosan maktabning o'rta va yuqori sinflarida amalga oshiriladi. Lekin bu ishning muvaffaqiyatli bajarishda boshlang'ich sinflarda va oilada turli darajada tayyorlanishga bog'liq.

Shu o'rinda inklyuziv ta'lif atamasining mohiyatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ijtimoiy sheriklikning o'rni beqiyos ekanligini anglaymiz. Aynan shuning uchun ham ijtimoiy sheriklik bolaning kasb-hunarga yo'naltirishda muhim o'rin kasb etadi.

Dunyodagi rivojlanagan davlatlar tajribasiga ko'ra, mahallalarda uch avlod uchrashuvlari, nuroniy va tadbirkorlarning yoshlarga bog'lanishi, maktablarda oila – maktab va jamoatchilik hamkorligini ta'minlash amaliyotida inklyuziv muloqot ayniqsa samarali ro'yobga chiqadi. Chunki o'zaro oila, maktab va mahallaning hamkorligi bir bolaning turli chalkashliklarsiz hayotda o'z o'rnini topishga yordam beradi.

Shu o'rinda bir misol, umumta'lif maktablarda ijtimoiy ish AQSHning Nyu York shtatida farzandlarning ta'lif ehtiyojini qondirish maqsadida joriy etilgan bo'lib, oila va maktab o'rtasida yaqin hamkorlikka erishish borasida samarali faoliyat yo'lga qo'yilganligi bois, bu tajriba 1906-1907 yillarda Chikago, Boston, va Xartford, Konnektikut shtatlarida ham tashkil etilgan [2, 20-b].

Ushbu hamkorlikdagi ta'lif va tarbiyaning asosiy tayanchi bo'lgan oila-maktab hamkorligini ta'minlaydigan birinchi maktab ijtimoiy ishchilari, "tashrif buyuradigan o'qituvchilar" deb nomlangan. Amerikalik olma Merui Richmond (1861-1928) tashrif buyuradigan o'qituvchilar xizmatining muhimligini ko'rsatib, "tashrif buyuradigan o'qituvchi oila va maktab o'rtasidagi strategik pozitsiyani egallaydi, inklyuziv muloqotni yo'lga qo'yadi. Ta'kidlash joizki, ta'lif va tarbiyani inklyuzivlashtirish uchun o'sha davrda bundan boshqa maqbulroq va foydaliroq bo'lgan yaxshi yo'l yo'q edi", deb yozgan edi [3, 197-b.].

Darhaqiqat, bolalarga mamlakatimizda har qanday mehnat sharafli ekanini, halol mehnat qilgan kishi yuksak, qadirlanishni, mehnatdan qochadigan ahloqsiz odamlarni hech kim hurmat qilmasligini, boshqalar hisobiga yashash umuman aqli, zukko odamga to'g'ri kelmasligini maktabda, ota-onalarning suhbatlaridan va ularning kuzatishidan iloji boricha ertaroq bilib olishlari lozim. Bunda, albatta, o'qituvchilarning o'rni ham beqiyosdir.

Shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, maktabda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish birgina o'qituvchining ishi emas, balki butun mакtab jamoasining ishidir. Maktabda fan o'qituvchilari mavzuni yoritish jarayonida kasblar bilan bog'lab o'tishsa, maktab psixolog va rahbariyati o'quvchilarning individual qobiliyatlarini, qiziqishlarini hisobga olgan holda ta'lif-tarbiya ishlarini olib borishsagina o'quvchilarga kasb tanlashlarida ko'mak bergen bo'lishadi. Shu bilan birga takrorlash zarurki, o'qituvchilar O'zbekiston Respublikasida yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, kadrlar tayyorlash milliy dasturining qabul qilinishi o'quvchi yoshlarni va aholini kasb-hunarga yo'naltiridh tizimini takomillashtirish – ish o'rinlarini bo'shab qolish jarayonlari jadallahshadigan va ishchilarning malakalariga

qo‘yiladigan sifat talablari oshib borayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitida yanada muhim kasb etadi [4,63-64-b.].

Ota-onalarning o‘z farzandlarining qiziqishlaridan kelib chiqib kelgusidagi kasb-hunar tanlashdagi ko‘mak va yordamlari bevosita o‘qituvchi va uning jamoasining maslahatlari bilan uyg‘un bo‘lishi lozim. Bundan tashqari, farzandini to‘g‘ri kasb hunarga yo‘naltirish borasidagi ota-onaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- yoshligidan farzandining ta’lim tarbiya olishiga befarq qaramasdan, uning qiziqish, mayli va qobiliyatini kuzatib borishi;
- har bir ota-onan farzandi o‘qiyotgan sinf rahbari, maktab amaliyotchi psixologi, yoshlar yetakchisi, shifokori bilan yaqin aloqada bo‘lib farzandini qaysi fanlarga qiziqishi, qaysi fan va sport to‘garaklariga qatnashayot-ganligini bilib borishi;
- ota-onan o‘z kasblari haqida farzandiga to‘liq ma’lumotlar berib borishi, unda qiziqish uyg‘otishi va boshqa kasblar haqida ma’lumotlar berib borishi;
- faqat farzandining qiziqishiga qarab kasb tanlash va unda o‘rganishiga imkoniyat yaratishi.

Yana bir Kolumbiya universiteti professori J.Yepstein (1915-1996) ham “oiladagi maktabga taaluqli bo‘lgan muloqot bolalarga ta’limning ahamiyatini anglatadi va bola hayotidagi ushbu ikki (oila va maktabning o‘zaro aloqadorligi) asosiy ta’sir omillar o‘rtasida yuz beradigan o‘zaro qo‘llab-quvvatlash va uzluksiz jarayonini ta’minalashga xizmat qiladi” [5, 108-154-b.] deb ta’kidlaydi. Bundan ko‘rinib turibdiki, oila, maktab va mahallaning o‘zaro hamkorligi bolaning nafaqat kasb-hunar tanlashda, balki butun bir ta’lim-tarbiyasida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi faqat ta’lim-tarbiyadangina iborat emas, balki bir-biriga bog‘liq bo‘lgan ko‘pgina hayotiy bosqichlarni ham o‘z ichiga oladi.

Fan – kadrlar tayyorlash milliy modelining yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiqaruvchi asosiy tarkibiy qismlaridandir. Haqiqatdan ham, ota-onalar, mahalla institutlari va maktab jamoalari shu jihatga ham ahamiyat berishlari lozim.

Chunki, fanning kadrlar tayyorlashdagi o‘rni nihoyatda katta, birinchi prezidentimizning quyidagi chuqur ma’noli so‘zları fikrimizning dalilidir: “Umuman, men fanni ilg‘or, taraqqiyot , progress degan so‘zlar bilan yonma-yon qabul qilaman. Fanning vazifasi kelajagimizning shakli-shamoyilini yaratib berish, ertangi kunimizning yo‘nalishlarini, tabiiy qonuniyatlarini, uning qanday bo‘lishini ko‘rsatib berishdan iborat, deb tushunaman. Odamlarga mustaqillikni afzalligini, mustaqil bo‘lmagan davlatning kelajagi yo‘qligini, bu tabiiy qonuniyat ekanini isbotlab, tushuntirib berish kerak. Fan jamiyat taraqqiyotining olg‘a siljituvchi kuchi, vositasi bo‘lmog‘i lozim” [6,25-b.].

Ba’zida shunday hollarga duch kelamiz, ota-onalar farzandlarini fan ilmini o‘rganishdan ko‘ra, hunar bilan shug‘ullanishlarini xohlaydilar. Vaholanki, farzandining qizqishlari bevosita fan bilan bog‘liq. Bunday vaziyatlarda, oila va mahallada fan haqida fikrlashlarini ijobjiy tomonga burish lozim. Chunki, har bir bola o‘zining qiziqqan sohasida yetuk kadr

bo‘lib yetishishi mumkin. Yetuk kadrlar esa jamiyatimizning, mamlakatimizning intellektual boyligi hisoblanadi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, xalqimizda “Bir bolaga - yetti qo‘shti ota-on” degan maqol bejizga aytildi. Oilada bir farzand dunyoga kelar ekan, uning ta’lim-tarbiysi, shaxsiy kamoloti haqida faqatgina ota-onas emas barcha yaqinlar, mahalla-maktab birgalikda harakat qilar ekan, bu farzand kelajakda yetuk inson bo‘lib voyaga yetadi. Har tomonlama yetuk va barkamol avlodlar esa mamlakatimizning kelajagi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Musurmonova O. Oila ma’naviyati- milliy g‘urur. “O‘qituvchi” nashriyoti. 1999. - 5 b.
2. Mears PA, Washington OR, Welsh BL. Social Work Services in schools, Allyn and Bacon, Boston, 1996.
3. “Yangi O‘zbekiston” gazetasi, 2022-yil 12-sentabr soni
4. Richmond, M. E. What is social case work. An introductory description. New York. NY: Russell Sage: Foundation. 1992 – 197 b.
5. SH.E. Ne’matov, O’.O. Tohirov, G. Yadgarova, N. Tashboyev., O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish orqali umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi uzviyilagini ta’minlashning nazariy-metodologik asoslari. Toshkent. 2015. – B.63-64.
6. Epstein, J.L., Lee, S., National patterns of school and family connections in the middle grades. In B. A. Ryan, T. Adams, R. Gullotta, G. Weissberg, R. Hampton (Eds.), The family-school connection: Vol. № 2 Theory, research and practice. Thousand Oaks. 1995. – P.108-154.
7. Islom Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. “Sharq” nashriyot-matbaa konserni, bosh tahriri. 1998. – 25 b.